


IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



2022- yil yanvar-dekabr



2022- yilning yanvar-dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi


Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

- 2022- yilning yanvar-dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 69,5 % ni tashkil etdi.
- Kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga 11,7 birlikni tashkil qildi.
- 2022- yilning yanvar-dekabrda 5 406 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 1 881 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 213 ta, sanoatda 1 062 ta, qurilishda 260 ta, yashash va ovqatlanishda 181 ta, tashish va saqlashda 164 ta tashkil etilgan.

Yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari

| | O'lchov birligi | 2021- y. | 2022- y. | Farqi (+;-) |
|---|-----------------|----------|----------|-------------|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni | birlikda | 38 057 | 39 038 | 981 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni | birlikda | 7 111 | 5 406 | -1 705 |
| <i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushlari:</i> | | | | |
| YAHM | % | 71,8 | 65,9 | -5,9 |
| Sanoat | % | 27,1 | 22,3 | -4,8 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | % | 96,9 | 96,5 | -0,4 |
| Investitsiya | % | 56,1 | 58,5 | 2,4 |
| Qurilish | % | 95,2 | 95,1 | -0,1 |
| Chakana savdo | % | 90,1 | 89,1 | -1,0 |
| Xizmatlar | % | 66,8 | 66,3 | -0,5 |
| Yuk tashish | % | 93,8 | 93,9 | 0,1 |
| Yuk aylanmasi | % | 71,9 | 69,2 | -2,7 |
| Yo'lovchi tashish | % | 97,4 | 96,6 | -0,8 |
| Yo'lovchi aylanmasi | % | 97,5 | 95,9 | -1,6 |
| Eksport | % | 36,5 | 38,6 | 2,1 |
| Import | % | 13,1 | 11,0 | -2,1 |



2022- yilning yanvar-dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da

**YAHM
69,5%**

**Savdo
89,1%**

**Sanoat
22,3%**

**Qurilish
95,1%**

**Investitsiya
58,5%**

**Eksport
38,6%**

**Xizmatlar
66,3%**


**Import
11,0%**

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

| | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | (+;-) |
|-------------------------|----------------------------|----------------------------|---------------|
| Andijon viloyati | 7 111 | 5 406 | -1 705 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Andijon sh. | 1 499 | 1 033 | -466 |
| Xonobod sh. | 206 | 70 | -136 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oltinko'l | 310 | 260 | -50 |
| Andijon | 633 | 517 | -116 |
| Baliqchi | 583 | 584 | 1 |
| Bo'ston | 229 | 168 | -61 |
| Buloqboshi | 252 | 165 | -87 |
| Jalaquduq | 328 | 205 | -123 |
| Izboskan | 323 | 286 | -37 |
| Ulug'nor | 145 | 102 | -43 |
| Qo'rg'ontepa | 308 | 303 | -5 |
| Asaka | 596 | 437 | -159 |
| Marhamat | 428 | 256 | -172 |
| Shahrixon | 477 | 416 | -61 |
| Paxtaobod | 342 | 304 | -38 |
| Xo'jaobod | 452 | 300 | -152 |



2022- yil yanvar-dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri – 19,1 %, Baliqchi tumani – 10,8 %, Andijon tumani – 9,6 %, Asaka tumani – 8,1 %, Shahrixon tumani – 7,7 %, Xo'jaobod tumani – 5,5 %, Paxtaobod tumani – 5,6 % va Qo'rg'ontepa tumani – 5,6 % ga tegishli.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

| | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | farqi (+;-) |
|---|----------------------------|----------------------------|----------------|
| Jami | 7 111 | 5 406 | -1705 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 747 | 1 213 | 466 |
| Sanoat | 2 028 | 1 062 | -966 |
| Qurilish | 447 | 260 | -187 |
| Savdo | 2 726 | 1 881 | -845 |
| Tashish va saqlash | 145 | 164 | 19 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 305 | 181 | -124 |
| Axborot va aloqa | 150 | 115 | -35 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 156 | 134 | -22 |
| Boshqa faoliyat turlari | 407 | 396 | -11 |



Ma'lumot uchun: 2022- yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

| | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi (+;-) |
|--------------|----------------------------|----------------------------|----------------|
| Andijon sh. | 1 499 | 1 033 | -466 |
| Baliqchi | 583 | 584 | 1 |
| Andijon | 633 | 517 | -116 |
| Asaka | 596 | 437 | -159 |
| Shahrixon | 477 | 416 | -61 |
| Paxtaobod | 342 | 304 | -38 |
| Qo'rg'ontepa | 308 | 303 | -5 |
| Xo'jaobod | 452 | 300 | -152 |

2022- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida -1 033 tani tashkil etdi.






2022- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 11,7 birlikni tashkil etdi.



Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra*




2022- yilning yanvar-dekabrda kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida 25,3 birlik, Xonobod shahrida 17,7 birlik, Xo'jaobod tumanida 14,4 birlik, Bo'ston tumanida 13,1 birlik, Ulug'nor tumanida 11,5 birlik, Asaka tumanida 10,7 birlik, Baliqchi tumanida 10,5 birlikni tashkil etgan. Izboskan tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 7,6 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2022- yilning yanvar-dekabrda tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)*




2022- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan viloyat bo'yicha 11,7 birlikni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich shahar va tumanlar kesimida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanganda o'sish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shaharda 1,4 birlikka, Baliqchi tumanida 1,2 birlikka, Paxtaobod tumanida 1,1 birlikka oshgan. Xonobod shahrida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 1,0 birlikka ortgan.

*Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda).



2022- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda*



Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori ko'rsatkich

- Andijon shahri
- 25,3 birlik


O'rtacha ko'rsatkich

- Oltinko'l tumani
- 9,8 birlik

Eng past ko'rsatkich

- Jalaquduq tumani
- 7,6 birlik

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, (yanvar-dekabr holatiga ko'ra, % da)

2022- yilning yanvar-dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 69,5 % ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-dekabrda 72,2 %).

YAHMning o'tgan yilga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan izohlanadi.

69,9 %

2020 - Y.

72,2 %


2021- Y.

69,5 %

2022- Y.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

| | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar | Investitsiya |
|-------------------------|---------------|-----------------|------------------|---------------------|
| Andijon viloyati | 22,3 | 95,1 | 66,3 | 58,5 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Andijon sh. | 22,2 | 93,0 | 68,3 | 43,1 |
| Xonobod sh. | 42,8 | 98,2 | 69,8 | 78,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Oltinko‘l | 80,3 | 86,6 | 70,7 | 38,8 |
| Andijon | 76,5 | 92,7 | 72,6 | 58,7 |
| Baliqchi | 63,5 | 100,0 | 69,5 | 79,3 |
| Bo‘ston | 68,5 | 100,0 | 59,5 | 41,7 |
| Buloqboshi | 100,0 | 100,0 | 59,1 | 96,5 |
| Jalaquduq | 46,3 | 85,2 | 69,7 | 78,3 |
| Izboskan | 43,4 | 100,0 | 66,9 | 82,7 |
| Ulug‘nor | 75,7 | 87,0 | 60,5 | 77,3 |
| Qo‘rg‘ontepa | 44,8 | 100,0 | 52,7 | 79,4 |
| Asaka | 2,6 | 100,0 | 65,6 | 21,3 |
| Marhamat | 34,8 | 100,0 | 70,8 | 73,0 |
| Shahrixon | 80,8 | 100,0 | 55,9 | 53,6 |
| Paxtaobod | 45,0 | 100,0 | 53,0 | 82,6 |
| Xo‘jaobod | 56,1 | 100,0 | 73,1 | 71,7 |

Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi eng ko‘p:

Sanoatda-

Buloqboshi (100 %),
Shahrixon (80,8 %),
Oltinko‘l (80,3 %),
Andijon (76,5 %),
Ulug‘nor (75,7 %),
Bo‘ston (68,5 %),
Baliqchi (63,5 %)
tumanlarida


Qurilishda-

Buloqboshi (100 %),
Shahrixon (100 %),
Bo‘ston (100 %)
Xo‘jaobod (100 %)
Baliqchi (100 %),
Izboskan (100 %)
Qo‘rg‘ontepa (100 %)
tumanlarida


Xizmatlarda-

Xo‘jaobod (73,1 %),
Andijon (72,6 %),
Marhamat (70,8 %),
Oltinko‘l (70,7 %),
Xonobod.sh (69,8 %),
Jalaquduq (69,7 %)
Baliqchi (69,5 %)
tumanlarida

2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 481,6 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 38,6 foizini tashkil etdi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buloqbooshi tumanida – 100 %, Ulug'nor tumanida – 100 %, Andijon tumanida – 84,9 %, Oltinko'1 tumanida – 86,5 %, Xonobod shahrida – 81,2 %, Bo'ston tumanida – 84,8 %, Shahrixon tumanida – 81,8 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 8,9 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 335,2 million AQSh dollarini yoki umumiy import hajmining 11,0 foizini tashkil etdi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buloqbooshi tumanida – 100,0 %, Jalaquduq tumanida – 97,6 %, Bo'ston tumanida – 63,6 %, Qo'rg'ontepa tumanida – 94,6 %, Ulug'nor tumanida – 93,1 %, Oltinko'l tumanida – 90,1 % va Marhamat tumanida 67,6 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 1,0 % ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 077,9 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2022- yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, (mlrd soʻm)




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (1 784,4 mlrd soʻm), Xoʻjaobod tumani (1 251,5 mlrd soʻm), Shahrixon tumani (1 121,0 mlrd soʻm), Xonobod shahri (1 148,6 mlrd soʻm) va Baliqchi tumani (1 046,4 mlrd soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi. Marhamat tumanida (192,7 mlrd soʻm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past boʻlib qolmoqda.



2022- yil yanvar- dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 22,3 foizni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-dekabr holatiga tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqbooshi (100 %), Shahrixon (80,8 %), Oltinko'1 (80,3 %), Andijon (76,5 %) Ulug'nor (75,7 %), Bo'ston (68,5 %) va Baliqchi (63,5 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (2,6 %) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 19 498,4 mlrd so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 89,1 foizini tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 110,1 foizni tashkil qildi.



2022- yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (5 205,5 mlrd so‘m), Shahrixon tumani (2 734,1 mlrd so‘m), Asaka tumani (1 918,5 mlrd so‘m) va Qo‘rg‘ontepa tumani (1 287,7 mlrd so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi.



2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 6 411 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 95,1 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,2 foizni tashkil qildi.




2022- yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (2 139,1 mlrd so'm), Andijon tumani (553,0 mlrd so'm), Shahrixon tumani (518,8 mlrd so'm), Oltinko'1 (376,8 mlrd so'm) hamda Asaka tumanlarida (337,5 mlrd so'm) qayd etildi.


2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 11 699,3 mlrd soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 66,3 foizini tashkil qildi. 2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 112,0 foizga oʻsdi.



2022- yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Andijon shahri (4 278,7 mlrd soʻm), Asaka tumani (860,4 mlrd soʻm), Andijon tumani (788,6 mlrd soʻm), Baliqchi (669,6 mlrd soʻm) va Xoʻjaobod (661,9 mlrd soʻm) tumani hissasiga toʻgʻri keladi.




2022- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,9 foizni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 foizni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 69,2 foizni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 107 foizni tashkil qildi.



2022- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,6 foizni tashkil etib, bu esa 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 101,2 foizga ko'payishiga olib keldi.



2022- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,9 foizni tashkil etib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 100,7 foizga ko'payish kuzatildi.

